

**MIKROBIOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019. B.38.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

ALIKULOV BEGALI SAYDULLAYEVICH

**AYRIM GALOFITLARNING GALOTOLERANT BAKTERIYALARI:
XUSUSIYATLARI, XILMA-XILLIGI VA AHAMIYATI**

03.00.04-Mikrobiologiya va virusologiya

**Biologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Alikulov Begali Saydullayevich

Ayrim galofitlarning galotolerant bakteriyalari: xususiyatlari, xilma-xilligi va ahamiyati..... 3

Аликулов Бегали Сайдуллаевич

Галотолерантные бактерии некоторых галофитов: свойства, разнообразие и значение..... 29

Alikulov Begali Saydullayevich

Halotolerant bacteria of some halophytes: properties, diversity and importance..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 60

**MIKROBIOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019. B.38.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

ALIKULOV BEGALI SAYDULLAYEVICH

**AYRIM GALOFITLARNING GALOTOLERANT BAKTERIYALARI:
XUSUSIYATLARI, XILMA-XILLIGI VA AHAMIYATI**

03.00.04-Mikrobiologiya va virusologiya

**Biologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyada B2025.2.DSc/B13 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (info-microbio@academy.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Ismailov Zafar Fayzullayevich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shakirov Zoir Soatovich
biologiya fanlari doktori, professor

Tashpulatov Javlon Jamondinovich
biologiya fanlari doktori

Sasmakov Sobirjon Anarmatovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy unjversiteti

Dissertatsiya himoyasi Mikrobiologiya instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.38.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «27» noyabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'ladi (Manzil: 100128, Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani, A.Qodiriy ko'chasi, 7B uy, Mikrobiologiya instituti konferensiya zalida). Tel.: (+99871) 241-92-28, (+99871) 241-71-98, faks: (+99871) 241-92-71, e-mail: info-microbio@academy.uz.

Dissertatsiya bilan Mikrobiologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (... raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100128, Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani, A.Qodiriy ko'chasi, 7B uy, Mikrobiologiya instituti ma'muriy binosi, 5-qavat, kutubxona). Tel.: (+99871)241-92-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «13» noyabrda tarqatildi.

(2025-yil «13» noyabrdagi №8 raqamli reyestr bayonnomasi)



Aripov Taxir Fatixovich

Aripov Taxir Fatixovich
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
b.f.d., professor, akademik

Jo'rayeva Roxila Nazarovna

Jo'rayeva Roxila Nazarovna
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.n., katta ilmiy xodim

Gulyamova Toshxon Gafurovna

Gulyamova Toshxon Gafurovna
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (Dsc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoning bir mlrd gektardan kamroq hududi birlamchi, 77 mln gektardan ortiq hududi ikkilamchi sho‘rlanishga uchragan, ikkilamchi sho‘rlangan hududlarning 58 % sug‘oriladigan maydonlardir¹. Sho‘rlanishga uchragan hududlarning kengayishi madaniy ekinlardan olinadigan hosilning kamayishiga, natijada aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabining yetarli darajada ta‘minlanmasligiga olib kelmoqda. Holat qishloq xo‘jaligi ekinlarining stress omillarga chidamliligini oshirishda, jumladan, sho‘rlanish sharoitlarida o‘sib-rivojlanishini ta‘minlashda innovasion tendensiyalar asosida samarador texnologiyalarni ishlab chiqish va qo‘llashni taqozo etmoqda. Bu borada, istiqbolli endofit bakteriyalarning yangi manbai sifatida sho‘rlangan hududlarda keng tarqalgan galofitlarni tadqiq etish, ulardan bakteriyalarni ajratish, biologik xususiyatlari va xilma-xilligini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Jahonda turli stress omillar ta‘siriga uchragan hududlar dehqonchiligini yuritishda o‘simlik mikroorganizmlari faoliyatiga asoslangan vositalardan foydalanishni rivojlantirish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, amaliyotda qo‘llashga raqobatbardosh vositalar taqdim etish uchun sho‘rlangan hududlarda keng tarqalgan va iqtisodiyot tarmoqlarida maqsadli qo‘llanilmaydigan galofit o‘simliklar endofit bakteriyalarini chuqur tadqiq etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Galofitlarning endofit bakteriyalarining rag‘batlantiruvchi xususiyatlari ta‘siri natijasida qishloq xo‘jaligi ekinlarining sho‘rlanishga chidamliligi va hosildorligini oshirishda ulardan endofit bakteriyalarni ajratish, stress omillar ta‘siriga bardoshli izolyatlarni tanlash, bakteriyalarni identifikatsiyalash, endofit bakteriyalarning fiziologo-biokimyoviy va qishloq xo‘jalik ekinlari rivojlanishini rag‘batlantiruvchi xususiyatlarini tahlil qilish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy yechimlarni asoslash muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlashda, qishloq xo‘jalik sohasini rivojlantirish uchun turli darajada sho‘rlangan maydonlarda madaniy o‘simliklarni yetishtirish va hosildorligini oshirishda samarador rag‘batlantiruvchi vositalardan foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan, respublikamizning sho‘rlangan hududlarida g‘o‘za, bug‘doy va boshqa ekinlarni yetishtirishda kimyoviy hamda organik vositalardan samarali foydalanish borasida muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida² «... qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish» bo‘yicha maqsad va vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, jumladan, ayrim galofitlarni qishloq xo‘jaligi ekinlarining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatuvchi endofit bakteriyalarning yangi manbai sifatida tadqiq etish, tuproqning sho‘rlanish sharoitida yashashga moslashgan endofit bakteriyalar istiqbolli shtammlarining imkoniyatlarini aniqlash

¹<https://wad.jrc.ec.europa.eu/soilsalination#:~:text=Saline%20soils%20Classified%20as%20Solonchaks>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni

va ulardan amaliyotda foydalanish bo'yicha texnologiyalar ishlab chiqish hamda joriy qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi va 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-sonli "Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi. Mazkur dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Dissertasiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi³. O'simliklarning stress omillarga chidamligigi va hosildorligini oshirishda mikroorganizmlar, xususan, ekstremofil endofit bakteriyalar faoliyatidan foydalanishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar, endofit bakteriyalarni ajratish va identifikasiyalash, ularning o'simliklarni rag'batlantiruvchi va bionazoratlik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Leibniz Centre for Agricultural Landscape Research (Germaniya), The Dargan Research Centre, Institute of Technology Carlow (Irlandiya), Centre of Microbial and Plant Genetics (Belgiya), Instituto de Investigaciones Químicas Biológicas (Meksika), Universidad de Cadiz (Ispaniya), Agri Ibrahim Cecen University (Turkiya), Al-Azhar University (Misr), University of Bejaia (Tunis), Mahatma Gandhi University (Hindiston), Maharshi Dayanand University (Hindiston), Institute of Tropical Bioscience and Biotechnology (Xitoy), Kyungpook National University (Janubiy Koreya), Central South University of Forestry and Technology (Xitoy), Russian Academy of Agricultural Sciences (Rossiya), Mikrobiologiya instituti (O'zbekiston) va O'zbekiston Milliy universiteti (O'zbekiston) da olib borilmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari, xususan, qishloq xo'jaligi sohasini yanada rivojlantirishda istiqbolli shtammlar manbayi sifatida endofit bakteriyalarni tadqiq etishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: endofit bakteriyalarning sho'rlangan tuproqlarda qishloq xo'jalik ekinlarining kasalliklarga chidamliligini oshirish xususiyatiga egaligi asoslangan (Leibniz Centre for Agricultural Landscape Research, Germaniya; Russian Academy of Agricultural Sciences, Rossiya; O'zbekiston Milliy universiteti,

³Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.sciencedirect.com/browse/journals>, <https://www.researchgate.net/publication>, <https://www.scopus.com/sources.uri?zone=TopNavBar&origin=searchbasic>, <https://www.elsevier.com/search-results?labels=journals>, <https://www.search.ebscohost.com>, <https://www.sci-hub.cc> va boshqa ilmiy manbalar asosida ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston); endofit bakteriyalarning o‘simliklar rivojlanishini rag‘batlantiruvchi xususiyatlari va mexanizmlari aniqlangan (The Dargan Research Centre, Institute of Technology Carlow, Irlandiya; Mahatma Gandhi University, Hindiston; Instituto de Investigaciones Quimico Biologicas, Meksika); bir qator o‘simliklardan ajratib olingan endofit bakteriyalar taksonomik jihatdan tavsiflangan (Centre of Microbial and Plant Genetics, Belgiya; Kyungpook National University, Janubiy Koreya; Maharshi Dayanand University, Hindiston); endofit bakteriyalarning antibakterial xususiyatlari aniqlanib, shtammlarning fitopatogenlarga qarshi samaradorligi isbotlangan (Central South University of Forestry and Technology, Xitoy; Mikrobiologiya instituti, O‘zbekiston); endofit bakteriyalar shtammlarining ayrim yuqumli o‘simlik kasalliklariga qarshi bionazoratlik xususiyatlari tavsiflangan (Agri Ibrahim Cecen University, Turkiya; Universidad de Cadiz, Ispaniya; Institute of Tropical Bioscience and Biotechnology, Xitoy).

Dunyoda o‘simliklar endofit bakteriyalarining xilma-xilligi va xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha bir qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: endofit bakteriyalarning istiqbolli shtammlarini ajratish va identifikatsiyalash; endofitlar va xo‘jayin-o‘simliklar o‘zaro ta‘sirining mexanizmlarini aniqlash; turli stress omillar ta‘siridagi hududlar dehqonchiligida endofitlar faoliyatiga asoslangan vositalarni qo‘llash; endofitlarning o‘simliklar o‘sishi va rivojlanishini rag‘batlantiruvchi xususiyatlarini aniqlash hamda ularning imkoniyatlarini baholash.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘simliklarning galotolerant endofit bakteriyalarining biologiyasi va potensialini baholash bo‘yicha tadqiqotlar mikrobiologiya hamda biotexnologiya fanining nisbatan yangi, zamonaviy yo‘nalishi hisoblanadi. Bir qator xorijiy ilmiy manbalarda mualliflar tomonidan, galofit o‘simliklar potentsiali (Ksouri va boshq., 2012; Hasanuzzamon va boshq., 2014; Jesus va boshq., 2015; Akinshina va boshq., 2016), galofit o‘simliklarning sho‘rlanish va boshqa stresslarga moslanish mexanizmlari (Shabala, 2011; Zhang va boshq., 2013; Uzilday va boshq., 2014; Joshi va boshq., 2015; Slama va boshq., 2015), sho‘rlanish muhitida yashash uchun galofil bakteriyalar tomonidan foydalaniladigan mexanizmlar (Sandhya va boshq., 2010; Jacob va boshq., 2012; Qin va boshq., 2016), rizo- va endofit bakteriyalarning stress omillar ta‘siridagi maydonlarda qishloq xo‘jalik ekinlari o‘sishini yaxshilash mexanizmlari (Arora va boshq., 2006, 2012; Dood, 2012; Timmusk va boshq., 2014; Khan va boshq., 2016; Etesami va boshq., 2017) va endofit bakteriyalar faoliyatiga asoslangan biostimulyatorlar hamda mikroorganizmlar preparatlari (Tadros, 2013; Rhuphael va boshq., 2015; Feorentino va boshq., 2018) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar qayd etilgan. Ushbu ma‘lumotlar, O‘zbekistondagi ayrim galofit o‘simliklar ekstremofil endofit bakteriyalarning yuqori potensialga ega bo‘lgan istiqbolli manbalari ekanligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida turli o‘simliklardan rizo- va endobakteriyalar ajratib olingan, ularning morfologo-kultural, fiziologo-biokimyoviy xususiyatlari o‘rganilgan (D. Egamberdiyeva, 2007; Q. Davranov, 2008, 2013; Z. Axmedova, 2008; R. Jurayeva, 2011; G. Jumaniyozova, 2012; Sh. Axanbayev, 2024), faol shtammlarni o‘stirishning optimal sharoitlari tanlangan, rizo- va endobakteriyalar faoliyatiga asoslangan mikroorganizmlar preparatlari yaratilgan

hamda shoʻrlanish, qirgʻoqchilik stressi taʼsiridagi mintaqalarda amaliyotga joriy etilib, ayrim qishloq xoʻjalik ekinlari oʻsishini yaxshilashi asoslab berilgan (V. Shurigin, 2016; X. Narbayeva, 2016; S. Murodova, 2018), har xil biotoplarda tarqalgan oʻsimliklarning endofit zamburugʻlarining tarqalishi, xilma-xilligi va xususiyatlari aniqlangan (T. Gulyamova, L. Abdulmyanova, D. Ruziyeva, 2018, 2022), ayrim shoʻrga chidamli oʻsimliklar rizosferasining biotexnologik potensialga ega boʻlgan galotolerant va termotolerant bakteriyalari ajratib olingan hamda oʻrganilgan (R. Jurayeva, 2011). Oʻzbekiston, shu jumladan, uning janubiy-gʻarbiy mintaqalaridagi iqlimning keskin oʻzgaruvchanligi, stress omillarning keng miqyosidagi taʼsiri ushbu hududlar florasidagi galofitlarda galotolerant endofitlar jamoalari xilma-xilligini oshirganlik ehtimoli yuqori. Biroq, ilmiy manbalarda galofit oʻsimliklardagi galotolerant endofit bakteriyalarning xilma-xilligi, ularning mikrobiologik tavsifi, biokimyoviy va boshqa samarali xususiyatlari hamda istiqbolli mikroorganizmlar uchun manba sifatida foydalanish imkoniyatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar amalda kam uchramoqda. Mazkur holar bu borada chuqur fundamental tadqiqotlar olib borilmaganligini koʻrsatadi. Shu bois, qishloq xoʻjaligining shoʻrlangan maydonlarida ekinlarning oʻsishini ragʻbatlantiruvchi istiqbolli manba sifatida - ayrim galofitlarning galotolerant endofit bakteriyalarini ajratish, identifikatsiyalash va ularning biotexnologik potensialini baholash nafaqat fundamental balki muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi. Dissertasiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti Genetika va biotexnologiya kafedrasining 2018-2022 yillarga moʻljallangan “Zarafshon vohasi tirik tabiati genofondi asosida biotexnologik potensialini tadqiq etish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi hamda OʻzR FA Mikrobiologiya institutining A-FA-2021-428 “Hozirgi Orol va Orolboʻyi hududi mikroorganizmlari: xilma-xilligi, xususiyatlari va biotexnologik istiqbollari” (2021-2024) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Oʻzbekistonda tarqalgan ayrim galofitlardan galotolerant endofit bakteriyalarini ajratish, biologik xususiyatlarini aniqlash, xilma-xilligini baholash va amaliyotda qoʻllashdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

galofitlardan endofit bakteriyalarni ajratish, ularni turli konsentratsiyali NaCl saqlagan oziqa muhitda oʻstirish orqali galotolerant izolyatlarni tanlash;

galotolerant izolyatlarni patogenlarga qarshi antagonistik xususiyatlari va oʻzaro taʼsir munosabati boʻyicha skrining qilish, ularning oʻsishiga haroratning taʼsirini baholash;

oʻsimliklar oʻsishini ragʻbatlantiruvchi (ISK, ASK-deaminaza va siderofor sintezlash, N₂ fiksatsiyalash, fosfat eritish, urugʻlar unuvchanligini stimullash) va fiziologo-biokimyoviy xususiyatlariga koʻra taqqoslash orqali istiqbolli izolyatlarni tanlash;

16S rRNK genining sekvensi asosida istiqbolli izolyatlarni identifikatsiyalash va sistematik oʻrnini belgilash;

vegetatsion va dala tajribalarida bakterial suspenziya bilan ishlov berishning qishloq xoʻjalik ekinlari ayrim biometrik koʻrsatkichlariga taʼsirini baholash orqali faol shtammlarni tanlash;

faol shtammlar o‘stiriladigan ozuqa muhitini optimallashtirish, ularning faoliyatiga asoslangan mikroba preparatini tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotda foydalanish orqali galotolerant bakteriyalarning ahamiyatini ochib berish.

Tadqiqot obyekti sifatida qora saksovul - *Haloxylon aphyllum* (Minkw) Iljin (ayrim manbalarda *Haloxylon ammodendron* (C.A.Mey.) Bunge ex Fenzl), sarsazan – *Halocnemum strobilaceum* (Pall) Bieb va qorabaroq – *Halostachys belangeriana* (Moq) Botsch (ayrim manbalarda *Halostachys caspica* (M.Bieb.) C.A.Mey). o‘simliklarining galotolerant endofit bakteriyalari olingan.

Tadqiqot predmetini ayrim galofitlardan ajratilgan galotolerant endofit bakteriyalarining xilma-xilligi, biologik xususiyatlari va amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda mikrobiologik, biotexnologik, molekulyar-genetik, biokimyoviy, fiziologik, agrotexnologik, agrokimyoviy, toksikologik va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Haloxylon aphyllum, *Halocnemum strobilaceum* va *Halostachys belangeriana* o‘simliklaridan 10% NaCl li ozuqada o‘stirish orqali 65 ta galotolerant bakterial izolyatlar ajratib olingan, ularning orasida 15 tasida fitopatogen zamburug‘lar (*F. solani*, *F. oxysporum*, *R. solani*) va shartli patogen bakteriyalar (*E. coli*, *S. aureus*, *P. aeruginosa*)ga nisbatan antagonistik faolligi yuqori bo‘lishi aniqlangan;

morfo-kultural tavsiflash va molekulyar-genetik tahlillar *H. aphyllum*, *H. strobilaceum* va *H. belangeriana* larda galotolerant endofit bakteriyalarning 3 ta sinf, 3 ta tartib, 4 ta oila hamda 5 turkumga mansub 13 ta turi uchrashini ko‘rsatgan, ushbu o‘simliklar mikrobiotasida *Isopterocola halotolerans* va *Bacillus endophyticus* turlari uchrashi ilk bor aniqlangan, natijada o‘simliklar galotolerant endofit bakteriyalarining taksonomik tarkibi hamda xilma-xilligi bo‘yicha ma’lumotlar to‘ldirilgan;

stressli sharoitda *Bacillus amyloliquefaciens* HAPH2 (77,8±4,4 mkg/ml) va *Bacillus subtilis* SSU16 (73,2±3,2 mkg/ml) shtammlarida ISK hosil qilish, *Bacillus pumilus* SSU4 (65,7±3,0 mkg/ml) shtammida fosfat eritish, *Pseudomonas chlororaphis* HAST17 (8,8±0,7 mkg/ml) shtammida siderofor hosil qilish, *B. amyloliquefaciens* HAPH2, *Planomicrobium soli* HAPH15, *P. chlororaphis* HAST17, *B. pumilus* SSU4, *Bacillus endophyticus* SSU7 shtammlarida ASK-deaminaza va N₂ fiksatsiyalash hamda urug‘lar unuvchanligini stimullash xususiyatlari boshqa shtamlarga nisbatan 1,7-8,2 baravar yuqori bo‘lishi asoslangan;

g‘o‘za, bug‘doy va bodring ustida olib borilgan vegetatsion hamda dala tajribalarida *B. amyloliquefaciens* HAPH2, *P. chlororaphis* HAST17 va *B. pumilus* SSU4 shtammlari suspenziyasi bilan urug‘ga ishlov berish sho‘rlanish sharoitida ekin turiga qarab ildiz rivojlanishini 16% gacha, maysa shakllanishini 22% gacha yaxshilashi, mahsuldor poya soni va diametri, ildiz massasi kabi hosildorlikni belgilaydigan biometrik ko‘rsatkichlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan;

B. amyloliquefaciens HAPH2, *P. chlororaphis* HAST17 va *B. pumilus* SSU4 shtammlari 3-metil-1-butanol, butanol-1, atsetofenon, tetrametilpirazin kabi

ikkilamchi metabolitlar hosil qilish orqali fitopatogenlarga nisbatan antagonistik faollik namoyon qilish va stressli sharoitda o'simliklar o'sishini stimullashi asoslanib, ushbu shtammlarning bakterial kulturasi suspenziyasining hayvonlarga nisbatan toksik ta'sir ega emasligi aniqlangan;

galotolerant bakteriyalar faol shtammlarini o'stirish uchun xashaki lavlagi ekstrakti (15 g/l), yomg'ir chuvalchanggi uni (15 g/l) va pivo achitqisi (5 g/l) dan iborat ozuqa muhiti tarkibi tanlangan, *B. amyloliquefaciens* HAPH2, *P. chlororaphis* HAST17 va *B. pumilus* SSU4 shtammlari faoliyatiga asoslangan "SB Shukrona" suyuq mikroba preparatini ishlab chiqish texnologiyasi yaratilgan va mazkur preparatni qo'llash orqali ekin turiga qarab 12,9%-16,8% samaradorlikka erishish mumkinligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

H. aphyllum, *H. strobilaceum* va *H. belangeriana* o'simliklaridan ajratilgan galotolerant bakteriyalarning o'sishi va mahsuldorligiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan, istiqbolli shtammlar uchun faollik yuqori darajada saqlanadigan sharoitlar tanlangan;

Bacillus amyloliquefaciens HAPH2, *Pseudomonas chlororaphis* HAST17 va *Bacillus pumilus* SSU4 shtammlari asosida "SB Shukrona" biopreparatini tayyorlash va qo'llashning texnikaviy shartlari bo'yicha O'zbekiston Milliy standarti (O'zMSSt 92110001:2024) ishlab chiqilgan;

g'o'za, bug'doy va bodringning sho'rlanish stressiga chidamliligini oshiruvchi "SB Shukrona" biopreparatining tajriba-sinov namunalari ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tajribalarda olingan natijalarning zamonaviy tadqiqot usullari yordamida olinganligi va ularning nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, eksperimental ma'lumotlarning Origin Pro dasturi yordamida, kamida 3-qaytariqli tajribalar arifmetik o'rtachalarining $p \leq 0,05$ qiymatidagi statistik ishonchlilik darajasida sarhisob qilinganligi, dissertasiya natijalarining xorijiy yuqori impakt-faktorli, Scopus ma'lumotlar bazasidagi nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilganligi va amaliyotga joriy etilganligining vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati galofit o'simliklardan ekstremofil endofit bakteriyalarning ajratib olinganligi, izolyatlar orasidan istiqbolli shtammlarning tanlanganligi va zamonaviy usullar yordamida identifikasiyalanganligi, istiqbolli shtammlarining o'simliklar rivojlanishini rag'batlantiruvchi xususiyatlari aniqlanganligi, shtammlarni o'stirishning optimal sharoitlarini asoslanganligi, galofitlar endofit bakteriyalarining sho'rlanish sharoitida o'simliklar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, hosildorlikni oshirish imkoniyatiga ega ekanligining isbotlab berilganligi, natijalarning biotexnologiya, mikrobiologiya va agrar sohaning nazariy qismini to'ldirganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sho'rlangan maydonlar dehqonchiligida fermer xo'jaliklari va klasterlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va jadal rivojlantirish maqsadida, sho'rlangan sharoitda samarali faoliyatga ega galofitlarning endofit bakteriya shtammlaridan tashkil topgan "SB Shukrona" biopreparatining Buxoro, Toshkent va Surxondaryo viloyatlarining sho'rlangan

hamda qurg'oqchil hududlarida qishloq xo'jaligi amaliyotiga joriy etilganligi bilan asoslanadi. Mazkur preparatdan foydalanish sho'rlangan va qurg'oqchil maydonlarda g'o'za va bug'doy yetishtirish texnologiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda tarqalgan ayrim galofitlardan galotolerant endofit bakteriyalarni ajratish, biologik xususiyatlarini aniqlash, xilma-xilligini baholash va amaliyotda qo'llashdagi ahamiyatini ochib berish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

galofitlardan ajratib olingan endofit bakteriyalarning 15 ta istiqbolli shtammlari 16S rRNK geni nukleotidlar ketma-ketligi National Center for Biotechnology Information (NCBI) ma'lumotlar bazasida MZ443975.1 (*Bacillus amyloliquefaciens* HAPH2), MZ443981.1 (*Bacillus toyonensis* HAPH8), MZ443985.1 (*Isoptericola halotolerans* HAPH12), MZ443988.1 (*Planomicrobium soli* HAPH15), MZ443989.1 (*Pseudomonas kilonensis* HAPH16), OK594050.1 (*Priestia megaterium* HAST2), OK594051.1 (*Priestia aryabhatai* HAST7), OK594052.1 (*Pseudomonas plecoglossicida* HAST9), OK594053.1 (*Pseudomonas putida* HAST10), OK594054.1 (*Pseudomonas chlororaphis* HAST17), OK559720.1 (*Bacillus pumilus* SSU4), OK559721.1 (*Bacillus endophyticus* SSU7), OK559722.1 (*Bacillus subtilis* SSU16), OK559723.1 (*Isoptericola halotolerans* SSU18), OK559724.1 (*Pseudomonas kilonensis* SSU21) raqamlari bilan ro'yxatga kiritilgan (<https://submit.ncbi.nlm.nih.gov/subs/?search=SUB9907630>). Natijada, ma'lumotlar bazasiga kiritilgan endofit bakteriyalar 16S rRNK genini nukleotidlar ketma-ketligi ulardan filogenetik tahlil uchun dunyo miqyosida foydalanish imkonini bergan;

Haloxylon, Halocnemum va Halostachys turkumiga mansub galofit o'simliklardan ajratib olingan galotolerant endofit bakteriyalarning xilma-xilligi va xususiyatlarini baholash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlardan yuqori impakt-faktorli (IF) 7 ta xorijiy jurnallarda mikroorganizmlarning antifungal va ekinlar o'sishini stimullash xususiyatlarini aniqlash hamda o'simlikda stress omil ta'sirini yumshatishda endofit bakteriyalar ishtirokida amalga oshadigan jarayonlar mexanizmlarini tushuntirishda foydalanilgan: Environmental Science and Pollution Research (2023), IF-6.2, ISSN 1614-7499, (Scopus); Microorganisms (2022), IF-4.6, ISSN 2076-2607, (Scopus); Plants (2022; 2024), IF-4.5, ISSN 2223-7747 (Scopus); AIMS Microbiology (2024), IF-2.7, ISSN 2471-1888, (Scopus); Molecular Biotechnology (2024), IF-2.7, ISSN 1073-6085, (Scopus); Russian Journal of Plant Physiology (2023), IF-1.4, ISSN 16083407, (Scopus). Natijada biologik mexanizmlarni tavsiflash orqali endofit bakteriyalarning xilma-xilligini aniqlash imkonini bergan.

galofitlardan ajratib olingan endofit bakteriyalarining istiqbolli shtammlariga asoslangan mikroob preparati bilan chigitga ekishdan oldin ishlov berib ekish bo'yicha tavsiyalar Buxoro viloyati Romitan tumanidagi "BCT Cluster", Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumanidagi "TCT Cluster" klasterlariga qarashli fermer xo'jaliklarida g'o'za yetishtirish jarayonlariga jami 108 gektar maydonlarga joriy etilgan (O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasining 2023-yil 27-noyabrdagi 01/22-913 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, chigitni mikroob preparati

bilan bakterizasiyalash g'oz o'sish va rivojlanishini stimullashi orqali sho'rlanish sharoitida g'ozadan gektariga 3,2 sentner qo'shimcha hosil olish imkonini bergan;

bug'doy yetishtirishda urug'ga ekishdan oldin endofit bakteriyalarining istiqbolli shtammlariga asoslangan mikro preparati bilan ishlov berish va NPK miqdorini 20% gacha kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar Surxondaryo viloyati Qiziriq tumanidagi "SCT Cluster" klasteriga qarashli fermer xo'jaliklarida jami 84 gektar maydonlarga joriy etilgan (O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasining 2023-yil 27-noyabrdagi 01/22-913 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, urug'ni mikro preparati bilan bakterizasiyalash bug'doy ildiz shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, mahsuldor poyalar sonini 14% gacha oshirishi orqali qurg'oqchilik sharoitida bug'doydan gektariga 2,7 sentner qo'shimcha hosil olish, mineral o'g'itlar sarfini 20% gacha kamaytirish imkonini bergan.

galofit o'simliklar endofit bakteriyalari, ularning o'simliklar o'sishini rag'batlantirish xususiyatlariga oid takliflar 60510100-biologiya va 60710200-biotexnologiya ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan talabalar uchun belgilangan Malaka talabi standartlari mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2022-yil 17-noyabrdagi 02/01-01-73 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, malaka talablari mazmuniga singdirilgan ayrim mavzularni o'qitish bo'lajak biolog va biotexnolog mutaxassislarda sohaga oid ko'nikmalarni chuqurroq shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 17 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 40 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, jumladan, 9 tasi respublikada, 7 tasi xorijiy jurnallar (6 tasi Scopus va Web of Science bazasidagi jurnallar)da nashr qilingan.


Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 200 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslab berilgan, maqsad va vazifalar, shuningdek, tadqiqotning obyekt va predmeti ifodalangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirish yo'nalishlariga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Galotolerant bakteriyalar biologiyasi, ularning stress omillarga moslanish mexanizmlari va ahamiyati**” deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy ilmiy manbalardagi sho‘rlanish muammosi, tasnifi va sho‘rlanish sharoitida o‘simliklarning o‘shini rag‘batlantirishda mikroorganizmlarning ahamiyati, galofitlarning endofit bakteriyalarni ajratib olish uchun yangi manba sifatidagi tavsifi, O‘zbekistondagi yuqori potentsialli ayrim galofitlar, galotolerant bakteriyalar va endofit bakteriyalarining o‘simliklarda sho‘rlanish stressini kamaytirish mexanizmlari bo‘yicha ma‘lumotlar bayon qilingan. Tahlillar asosida galofitlardan endofit bakteriyalarni ajratish, tadqiq etish va potensialini baholashning dolzarbligi ko‘rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning “**Galotolerant endofit bakteriyalarni ajratish, o‘stirish, identifikatsiyalash va amaliy ahamiyatini baholash usullari**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlari, namunalar yig‘ilgan va dala tajribalari o‘tkazilgan hududlar tavsifi keltirilgan, tadqiqotda qo‘llanilgan mikrobiologik, biotexnologik, biokimyoviy, genetik, agrotexnologik, agrokimyoviy, toksikologik, fiziologik va statistik usullar bayon qilingan.




1-rasm. Tadqiqot obyektlari (Bunda: A-*H. aphyllum*; B-*H. strobilaceum*; D-*H. belangeriana*) va namunalar yig‘ilgan hududlar lokatsiyasi (E)

Bakteriyalarni ajratish va o‘stirish, izolyatlarining sho‘rlanish sharoitida o‘shish imkoniyatlarini baholash, izolyatlarning antifungal va antibakterial faolligini, o‘shish tezligiga haroratning ta‘sirini, azot fiksatsiyalash, fosfatni eritish, ISK ishlab chiqarish, siderofor hosil qilish, AKK deaminaza ishlab chiqarish xususiyatlarini aniqlash, bakteriyalarning fiziologo-biokimyoviy xususiyatlarini baholash va ularning ikkilamchi metabolitlarni aniqlash va tavsiflash, tuproqning kimyoviy tarkibini tekshirish, vegetatsion va dala tajribalarini o‘tkazish hamda iqtisodiy samaradorlikni baholash usullari yoritilgan.

Dissertatsiyaning “**Ayrim galofitlardan ajratib olingan galotolerant endofit bakteriyalarning xususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekistonning Janubiy-g‘arbiy hududlarida keng tarqalgan ayrim galokserofitlardan galotolerant endofit bakteriyalarni ajratish, o‘stirish va biologik xususiyatlarini baholash bo‘yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Zamonaviy ilmiy manbalar tahlili orqali tadqiqotlar uchun obyekt sifatida galotolerant endofit bakteriyalari deyarli o‘rganilmagan uchta (*H. aphyllum*, *H. strobilaceum* va *H. belangeriana*) galokserofit o‘simliklar tanlab olingan.

O‘simliklarning ildiz va poyasidan 3000 dan ortiq segmentlar olingan, tegishli tartib asosida sterillangan. Namunalardan toza kulturaga qattiq ozuqa muhitining yuzasiga o‘tib chiqqan jami 720 ta izolyat ajratib olingan. Ajratilgan izolyatlarning 45% i *H. aphyllum*, 30% i *H. strobilaceum* va 25% i *H. belangeriana* o‘simligiga taaluqli segmentlarga tegishli bo‘lgan. Mazkur izolyatlarning 54,4% i ildizdan, 45,6% i poyadan olingan namunalardan ajratib olingan (2-rasm).



2-rasm. Ajratilgan izolyatlarning o‘simliklar va ularning vegetativ organlari bo‘yicha taqsimlanishi

Tadqiqotlar davomida galokserofitlardan ajratib olingan endofit bakteriyalar orasidan galotolerant bakteriyalarni tanlab olishga qaratilgan tajribalar o‘tkazilgan. 1,0, 2,5, 5,0 va 10,0% li NaCl bilan boyitilgan ozuqa muhitida o‘stirishning izolyatlar kolonizatsiyalanishiga ta‘sirini aniqlash orqali galotolerant izolyatlar tanlab olingan (1-jadval).


1-jadval

Galofitlardan ajratib olingan endofit bakteriyalar izolyatlarining o‘shishiga sho‘rlanishning ta‘siri

O‘simlik nomi	Ajratilgan jami izolyatlar	NaCl konsentratsiyasi, %			
		1,0	2,5	5,0	10,0
		O‘sgan izolyatlar soni (%)			
<i>H. aphyllum</i>	322	283 (87,9)	245 (76,1)	209 (64,9)	20 (6,2)
<i>H. strobilaceum</i>	216	199 (92,1)	177 (81,9)	156 (72,2)	20 (9,3)
<i>H. belangeriana</i>	182	160 (87,9)	140 (76,9)	125 (68,7)	25 (13,7)
Jami	720	642 (89,2)	562 (78,1)	490 (68,1)	65 (9,0)

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, galokserofit o‘simliklardan ajratib olingan 720 ta izolyatning 642 tasi (89,2%) 1,0% NaCl li ozuqada o‘sgan bo‘lsa, 2,5% NaCl li muhitda o‘sgan izolyatlarni 562 tani (78,1%) tashkil etdi. 5% NaCl li ozuqa muhitida jami izolyatlarga nisbatan 68,1% izolyatlar o‘shish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Tekshirilgan izolyatlardan faqat 65 tasi (jami izolyatlarning 9,0% i) ekstremal bo‘lgan 10,0% li NaCl li sharoitida o‘sganligi kuzatildi. Mazkur 65 ta izolyat galotolerant bakterial izolyatlar sifatida tanlab olingan va tadqiqotning keyingi bosqichlari shu izolyatlar bilan davom ettirilgan. Endofit bakteriyalarning xo‘jayin o‘simlik o‘shishini rag‘batlantirish va uning abiotik hamda biotik stress

omillarga chidamliligini oshirish mexanizmlaridan biri fitopatogenlarga qarshi kurashish yoki uning faoliyatini biologik nazorat qilish hisoblanadi. Shu bois, tadqiqot davomida oldingi bosqichlarda tanlangan 65 ta izolyatlar patogen zamburug'lardan *F. solani*, *F. oxysporum* va *R. solani* lar, bakteriyalardan *E. coli*, *S. aureus* va *P. aeruginosa* larga nisbatan antagonistik faolligi birlamchi skrining qilingan. Birlamchi skrining natijalariga ko'ra, tekshirilgan 65 ta izolyatning 15 tasi barcha patogenlarga nisbatan antagonistik xususiyatga egaligi qayd qilingan (3-rasm).



3-rasm. Endofit bakterial izolyatlarning antagonistik xususiyatlari (Bunda: A- tadqiqot obyektlari kesimida faollikka ega izolyatlarning ulushi (%); B- izolyatlarining antagonistik xususiyatlariga ko'ra guruhlariga taqsimlanishi)

3-rasm ma'lumotlariga ko'ra, tadqiq qilingan izolyatlarning 23,0%i (15 ta izolyat - HAPH2, HAPH8, HAPH12, HAPH15, HAPH16, HAST2, HAST7, HAST9, HAST10, HAST17, SSU4, SSU7, SSU16, SSU18, SSU21) tadqiq qilingan barcha patogenlarga nisbatan faol ekanligi qayd qilindi. Shuningdek, galotolerant izolyatlarning 8,0%i 5 ta; 23,0%i 4 ta; 31%i 3 ta; 9,0%i 2 ta va 3,0%i bitta patogenga nisbatan antagonistik ta'sirga ega bo'lgan bo'lsa, 3,0% izolyatda patogenlarga nisbatan faollik aniqlanmadi (3-rasm).

Tajribalar davomida antagonistik faolligi yuqori bo'lgan izolyatlar sifatida tanlangan 15 ta izolyatlarning patogenlarga nisbatan faolligi ikkilamchi skrining qilingan. Skrining natijalariga ko'ra, izolyatlar orasida SSU7 izolyati *F. solaniga*, HAPH2 izolyati *F. oxysporum*, *R. solani* va *S. aureusga*, HAST17 izolyati *E. coliga*, HAST10 izolyati *P. aeruginosaga* nisbatan yuqori faollik ko'rsatganligi qayd qilingan (2-jadval).

Shu bilan bir qatorda, chorrahaviy ekish orqali amalga oshirilgan skrining natijalari tadqiq qilingan izolyatlarda o'zaro ta'sirlashuv faolligi deyarli mavjud emasligini ko'rsatgan. Tajribalarda HAPH2 va SSU18, HAPH8 va HAST2, HAPH8

va HAST7, HAPH12 va HAST7, HAPH12 va HAST17, HAPH15 va SSU7, HAPH15 va SSU18, HAST2 va SSU4 hamda SSU16 va SSU18 orasida antagonistik munosabatlar mavjudligi aniqlangan. Izolyatlar orasidagi antagonistik munosatlarning kamligi, bir turdan ajratib olingan endofit bakteriyalar orasida antagonistik ta'sir munosabatlar bo'lmashligi bilan izohlangan.

2-jadval


Galotolerant endofit bakteriyalar izolyatlari orasidan birlamchi skrining natijasida ajratib olingan izolyatlarning patogen zamburug' va bakteriyalarga chidamliligi (n=5)

Izolyat nomi	Antagonistik faolligi (ingibirlanish masofasi, mm da)					
	<i>F. solani</i>	<i>F. oxysporum</i>	<i>R. solani</i>	<i>E. coli</i>	<i>S. aureus</i>	<i>P. aeruginosa</i>
Nazorat*	24,1±1,2	-	26,8±1,3	26,0±0,8	30,0±1,6	25,0±0,8
HAPH2	22,7±1,4	26,5±1,0	30,4±1,7	20,9±0,7	29,4±1,4	31,8±1,0
HAPH8	16,3±1,0	14,4±1,2	22,6±1,0	21,8±1,0	19,6±1,0	24,6±1,1
HAPH12	20,5±0,9	0,0±0,0	18,0±1,3***	17,6±1,6	26,5±1,9	19,9±1,5
HAPH15	21,4±1,1	17,2±1,3	24,4±1,0	0,0±0,0	18,8±1,0	22,2±1,3
HAPH16	14,8±1,9	22,6±1,1	20,1±0,7	10,9±1,0	25,0±1,0	20,0±1,1
HAST2	18,5±1,0	22,4±1,3	21,4±1,3	17,8±1,5	0,0±0,0	28,3±1,0
HAST7	10,9±1,5	20,9±1,0	0,0±0,0	23,3±1,0	20,7±1,0***	24,1±1,2
HAST9	20,5±1,8	19,0±0,8	24,7±1,4	14,6±1,8	13,6±1,8	18,4±1,0
HAST10	17,3±1,0	23,5±1,1	12,3±1,0	22,9±1,4	24,8±1,0	30,3±1,1***
HAST17	22,6±1,3	22,0±1,4	28,4±1,6**	30,1±1,3**	22,9±1,6	27,1±1,5
SSU4	21,7±1,0	28,3±1,0	24,4±1,2	22,8±1,1	25,8±1,4	20,9±1,0
SSU7	23,6±0,9	0,0±0,0	18,6±1,0	20,4±1,5	26,6±1,0	22,3±1,1
SSU16	20,3±1,1**	24,0±1,0	19,5±0,7	24,5±1,3	21,4±1,7	19,1±0,8
SSU18	0,0±0,0	20,2±1,1	21,5±1,1	14,9±1,6	19,1±1,0	24,2±1,2
SSU21	21,2±1,0	16,1±1,0	25,2±0,8	0,0±0,0	17,5±1,0	14,0±1,9

Izoh. *antifungal faollik uchun "Basikol preparati" (Смирнов, 2010), antibakterial faollik uchun ampitsillin (Sharma va boshq., 2022) nazorat sifatida qo'llanilgan tadqiqotlar natijalari olingan; **p<0,05 da, ***p<0,01 da statistik ahamiyatga ega.

Mikroorganizmlar, jumladan, bakteriyalarning faolligi va o'sishi asosan muhit harorati bilan belgilanadi. Shu bois, tajribalarda istiqbolli izolyatlarning o'sishiga harorat (20°C, 24°C, 28°C, 32°C, 36°C, 40°C) ta'siri baholangan (4-rasm). Olingan ma'lumotlar asosida, izolyatlarni o'stirish uchun optimal harorat 28-32°C ekanligi qayd qilingan. Spektrometrik tahlillar natijasida, 32°C da o'sish tezligi eng yuqori bo'lgan shtammlar sifatida HAST17 (optik zichlik 2,91), HAPH2 (2,85), SSU4 (2,85), HAST7 (2,81), SSU16 (2,76) va HAPH16 (2,67)lar belgilangan.

Mutaxassislarining qayd qilishicha, o'simliklarning to'qimalarida yashovchi endofit bakteriyalar o'simlikka ta'sir qiluvchi stress omillarga chidamli bo'lib, ular o'z xo'jayin o'simliklar organizmiga stress omillarning salbiy ta'sirini yumshatishga, ularni yengishga yordam beradi, o'simlikning o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Bu borada, galofitlardan ajratilgan galofil bakteriyalar o'simliklarda sho'rlanish stressini kamaytirishda bir qator asosiy mexanizmlardan foydalanadi, bu mexanizmlarning asosiylari ISK, ASK-deaminaza, sideroforlar ishlab chiqarish, erimaydigan fosfatlarni eritish va azot fiksasiyasi deb hisoblangan hamda izolyatlarning mazkur xususiyatlari normal va sho'rlanish sharoitida o'rganilgan.



4-rasm. Galotolerant izolyatlarning o‘shiga haroratning ta’siri (n=3)

Istiqbolli izolyatlarning o‘simliklarni o‘shini rag‘batlantiruvchi xususiyatlari (azot fiksasiyalash, ISK va siderofor hosil qilishi, erimaydigan fosfatlarni parchalash, ASK-deaminaza ishlab chiqarish) yuzasidan bayon qilingan ma’lumotlar asosida galofit o‘simliklardan ajratib olingan endofit bakteriyalarda o‘rganilgan xususiyatlar bo‘yicha potensial yuqoriligi ta’kidlab o‘tilgan. Bir qator bakterial izolyatlar (HAPH2, HAST17, SSU4, SSU21)da sho‘rlanish sharoitida ham o‘simliklarni o‘shini rag‘batlantiruvchi xususiyatlarning ma’lum darajada saqlanib qolinishi istiqbolda ulardan stress omillar ta’siridagi mintaqalarda qishloq xo‘jalik ekinlari o‘shini stimullovchi vositalarni ishlab chiqarish bo‘yicha tadqiqotlarni davom ettirish zarurligini asoslaydi, deb xulosa qilingan (3-jadval).

O‘simliklarning ularga ta’sir qiluvchi har xil abiotik va biotik omillarga bardoshlilikini oshirishi va moslashib yashashida o‘simlikda mavjud mikroorganizmlar, shu jumladan, endofit bakteriyalarning o‘ziga xos fiziologo-biokimyoviy xususiyatlari hamda ular tomonidan ajratiladigan fermentlar, biologik faol moddalar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar davomida istiqbolli izolyatlarning fiziologo-biokimyoviy xususiyatlari o‘rganilgan. Tekshirilgan izolyatlardan 8 tasi proteolitik, 12 tasi amilolitik, 11 tasi sellulolitik va 10 tasi katalitik faollikka ega ekanligi aniqlangan. Shuningdek, izolyatlarning 6 tasi denitrifikatsiyalash, 10 tasi jelatin gidrolizlash va 9 tasi kraxmal gidrolizlash xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatgan. Izolyatlarni turli pH ko‘rsatkichli ozuqa muhitda o‘stirish orqali olingan ma’lumotlar asosida galofitlardan ajratib olingan endofit bakteriyalar neytrofil bakteriyalar (muhit pH ko‘rsatkichi 5-7 bo‘lgan ozuqalarda barcha izolyatlarning jadal tarzda o‘sgan) sifatida tavsiflangan.

3-jadval

Endofit bakteriyalarning o‘simliklar rivojlanishini rag‘batlantiruvchi xususiyatlari*
(n=3)

Izolyat nomi	N ₂ fiksatsiyalash		ISK hosil qilish, mkg/ml		Fosfat eritish, mkg/ml		ASK-deaminaza hosil qilish		Siderofor ishlab chiqarish, mkg/ml	
	A**	B**	A	B	A	B	A	B	A	B
HAPH2	+++	++	162,1± 5,3	77,8± 4,4	124,5± 6,2	57,2± 3,7	+++	+	17,4± 1,0	8,1± 0,6****
HAPH8	++	+	119,0± 5,8	-	78,4±3 ,1	31,0± 2,8	-	-	8,0± 0,5	2,7± 0,2
HAPH12	+	+	103,4± 4,9	61,3± 3,7****	-	-	+	+	12,4± 0,8	3,4± 0,3
HAPH15	+++	+	111,3± 4,6	70,6± 3,1	-	-	++	+	19,3 ±1,2	8,2± 0,5
HAPH16	++	-	169,5± 6,1	54,9± 5,2	189,7± 8,1	50,6± 4,0	++	-	4,6± 0,3	-
HAST2	-	-	126,6± 7,2	-	98,8± 3,6	-	+	+	11,5± 0,8	4,0± 0,3
HAST7	++	+	99,0± 6,4	58,5± 3,4	106,5± 5,1	-	++	+	5,7± 0,4	1,8± 0,2
HAST9	+++	-	103,4± 4,9	39,8± 3,5	131,9± 6,0	44,6± 2,8****	+	-	-	-
HAST10	++	-	134,6± 7,1	-	67,6± 2,2	21,7± 1,9	-	-	13,8± 0,9	6,1± 0,4
HAST17	++	+	172,8± 5,0	71,6± 4,7	202,3± 7,6	60,4± 3,1	++	++	18,2± 1,0	8,8± 0,7
SSU4	++	+	168,0± 5,2	66,9± 4,0****	195,8± 9,5	65,7± 3,0	++	++	14,5± 0,8	4,1± 0,3
SSU7	+++	++	-	-	80,5± 3,0	-	-	-	12,2± 0,6	7,0± 0,4***
SSU16	+	+	155,3± 4,7	73,2± 3,2	-	-	+	+	5,4± 0,3	-
SSU18	+	+	141,3± 4,4	-	87,1± 3,6	24,6± 2,1****	++	+	-	-
SSU21	+++	-	80,6± 6,0	47,3± 3,7	118,8± 4,5	41,7± 2,6	+	+	11,4± 0,5	3,7± 0,2

Izoh. * -“+” – xususiyatga ega; “-” – xususiyatga ega emas; **A) Normal (uslub bo‘yicha oziqa muhiti) sharoitda; B) sho‘rlanish (10% NaCl saqlagan ozuqa muhiti) sharoitida; *** p<0,05 da, ****p<0,01 da statistik ahamiyatga ega.

pH 3 ga teng bo‘lgan muhitda faqat ikkita (HAST2, HAST7), 9 ga teng bo‘lgan muhitda faqat uchta (HAPH2, SSU4 va SSU7) izolyatlarning o‘sganligi sababli pH ning mazkur qiymatlari tanlangan izolyatlar uchun ekstremal sharoit sifatida tanlangan. Tadqiqotlar davomida, istiqbolli izolyatlar bakterial kulturasi suspenziyasi bilan urug‘ga ishlov berishning qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘lari unuvchanlik ko‘rsatkichlariga ta‘siri baholangan. Olingan natijalar asosida, bug‘doy, g‘o‘za va bodring urug‘lariga HAPH2, HAPH16, HAST2, HAST10, HAST17, SSU4, SSU7 va SSU16 izolyatlari suspenziyasi bilan ishlov berish boshqa izolyatlarga nisbatan yaxshiroq ta‘sir ko‘rsatishi qayd qilingan.

4-jadval


Galofitlardan ajratib olingan endofit bakteriyalar istiqbolli izolyatlari xususiyatlarining qiyosiy tahlili

Izolyat nomi	NaCl (10%) ga chidamligi		Antagonistik xususiyatlari ¹					Haroratga chidamligi ²					O'simliklar rivojlanishini rag'batlantiruvchi xususiyatlar ³						Fiziolgo-biokimyoviy xususiyatlar ⁴					pH o'zgaruvchanligiga chidamligi ⁵			Urug'lar-ning o'sish quvvatiga ta'siri ⁶			Urug'lar-ning unuvcha darajaga ta'siri ⁷				
	<i>F. solani</i>	<i>F. oxysporum</i>	<i>R. solani</i>	<i>E. coli</i>	<i>S. aureus</i>	<i>P. aeruginosa</i>	20 °C	24 °C	28 °C	32 °C	36 °C	40 °C	Azot fiksatsiyalash	ISK sintezi	ASK-d-za sintezi	Siderofor sintezi	Fosfat parchalash	Protetaza	Amlaza	Sellulaza	Katalaza	Jelatin gidrolizi	Kraxmal gidrolizi	3	4	5	6	7	8	9	Bug'doy	Go'za	Bodimg	
HAPH2																																		
HAPH8																																		
HAPH12																																		
HAPH15																																		
HAPH16																																		
HAST2																																		
HAST7																																		
HAST9																																		
HAST10																																		
HAST17																																		
SSU4																																		
SSU7																																		
SSU16																																		
SSU18																																		
SSU21																																		

Izoh. 1-Antagonistik xususiyatlari (ingirbitlanish zonasi kengligi bo'yicha)
 2-Haroratga chidamligi (kultural suyuqlikning optik zichligi bo'yicha)
 3-O'simliklar rivojlanishini rag'batlantiruvchi xususiyatlar:
 Azot fiksatsiyalash, ASK-d-za sintezi, siderofor sintezi, fosfat parchalash
 ISK sintezi (hosil bo'lgan ISK miqdoriga ko'ra)
 4- Fiziolgo-biokimyoviy xususiyatlar (faollik ko'rsatishi bo'yicha)
 5- pH o'zgaruvchanligiga chidamligi (o'sish imkomiyati bo'yicha)
 6-O'sish quvvatiga ta'siri (4 kunda ungan urug'lar ulushi bo'yicha)
 7-Unuvchanlik darajasiga ta'siri (7 kunda ungan urug'lar ulushi bo'yicha)

Yuqori (20 mm ≤)
 Yuqori (2 ≤)
 Xususiyatga ega
 Yuqori (150 mkg/ml ≤)
 Xususiyatga ega
 Chidamli
 Yuqori (50% ≤)
 Yuqori (80% ≤)
 O'rtacha (10-19 mm)
 O'rtacha (1-1,99)
 Xususiyatga ega emas
 O'rtacha (50-150 mkg/ml)
 Xususiyatga ega emas
 Past (1-9 mm)
 Past (0,01-0,99)
 Past (1-50 mkg/ml)
 Past (1-1,99)
 Xususiyatga ega emas (0 mm)
 Haroratga chidamsiz (0 mm)
 Xususiyatga ega emas (0 mkg/ml)
 Xususiyatga ega emas (0-40%)
 Ta'sirga ega emas (0-40%)
 Past (61-69%)
 Ta'sirga ega emas (0-60%)

Mazkur izolyatlar bilan ishlov berish orqali bug‘doyda nazorat variantiga nisbatan o‘shish quvvati 10,0% gacha, unuvchanlik darajasi 13,5% gacha, g‘o‘zada 11,0% va 20% gacha, bodringda 9,5% va 13,5% gacha yaxshilangan. Hujayralar konsentratsiyasi 10^8 huj./ml ga yetkazilgan bakterial kulturaning 20% konsentratsiyali suspenziyasi bilan 6 soat davomida ishlov berish optimal me‘yor sifatida tanlangan (5-rasm).



5-rasm. Istiqbolli izolyatlar suspenziyasi bilan urug‘ga ishlov berishning laboratoriya sharoitida bug‘doy (A), g‘o‘za (B) va bodring (D) urug‘lari unuvchanlik ko‘rsatkichlariga ta’siri (n=3)

III bobning yakunida, ayrim galofitlardan ajratib olingan galotolerant endofit bakteriyalar izolyatlari potentsiali yuqori izolyatlarni tanlash maqsadida o‘rganilgan xususiyatlari bo‘yicha qiyosiy baholangan (4-jadval). Natijada, 15 ta izolyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali olingan ma’lumotlar, identifikatsiyalash uchun izolyatlar orasidan yaqqol ajralib turadigan izolyatlarni tanlashda qiyinchilik tug‘dirganligi qayd qilingan.

O‘rganilgan xususiyatlarning aksariyatida yuqori potentsialli izolyatlar sifatida HAPH2, HAST17 va SSU4 lar qayd qilingan bo‘lsada, HAPH16 va SSU16 larning urug‘lar unuvchanligini stimullash xususiyati bo‘yicha yoki boshqa izolyatlarning boshqa bir xususiyat bo‘yicha istiqbolli ekanligi ta’kidlangan. Shu bois, barcha 15 ta izolyatlarning sistematik o‘rnini zamonaviy usullar yordamida belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning IV bobi “**Ayrim galofitlardan ajratilgan galotolerant endofit bakteriyalarning xilma-xilligi**” deb nomlagan bo‘lib, ushbu bobda tadqiqotning dastlab bosqichida ajratib olingan va istiqbolli deb topilgan izolyatlarning sistematik o‘rnini belgilashga qaratilgan tajribalar natijalari bayon qilingan.

Tajribalarda sekvenslash uchun tegishli usullar yordamida izolyatlardan DNK ajratilgan, DNK 16S rRNK geni PZR orqali ko‘paytirilgan, PZR mahsulotlari elektroforez qilingan, PZR mahsulotlari tegishli ko‘rsatma asosida tozalangan va namunalar sekvenslangan.

5-jadval

Galotolerant endofit bakteriyalari istiqbolli shtammlari 16S rRNK geni nukleotidlar ketma-ketligining genbankdagi yaqin turlar nukleotidlar ketma-ketligiga o'xshashlik darajasi

Gen bankka kiritilgan			Genbankda mavjud		
Shtamm nomi	Uzunligi, bp	Kiritish raqami	Mavjud shtammlar	Ro'yxatdagi raqami	O'xshashlik darajasi, %
HAPH2	1465	MZ443975	<i>Bacillus amyloliquefaciens</i> WS-1	LN864483.1	99,79
HAPH8	1411	MZ443981	<i>Bacillus toyonensis</i> IMA7	MK424259.1	99,79
HAPH12	1456	MZ443985	<i>Isoptricola halotolerans</i> NBRC 104116	AB489222.1	99,66
HAPH15	1454	MZ443988	<i>Planomicrobium soli</i> XN13	NR_134133.1	99,72
HAPH16	1466	MZ443989	<i>Pseudomonas kilonensis</i> R-54757	LN995719.1	99,59
HAST2	1467	OK594050	<i>Priestia megaterium</i> PZG_S16	KY660610.1	99,93
HAST7	1485	OK594051	<i>Priestia aryabhatai</i> L42	KU179345.1	99,87
HAST9	1427	OK594052	<i>Pseudomonas plecoglossicida</i> FST1	MH165359.1	99,79
HAST10	1488	OK594053	<i>Pseudomonas putida</i> A1	MK680517.1	99,87
HAST17	1478	OK594054	<i>Pseudomonas chlororaphis</i> ST-1	GU947817.1	99,73
SSU4	1500	OK559720	<i>Bacillus pumilus</i> soapstock18B	MN750426.1	99,73
